

“TASDIQLAYMAN”



Jizzax davlat pedagogika universiteti
Yoshlar masalalari va ma`naviy
ma`rifiy ishlar bo'yicha birinchi
prorektori S.Nazarqosimov
2024-yil 5-fevral

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabalarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida “Har bir talaba o'qishi zarur bo'lgan 100 kitob” loyihasi doirasida tashkil etiladigan “TARG'IBOTCHI KITOBXON” tanlovinin NIZOMI

I. bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom talabalarining bo'sh vaqtini samarali va mazmunli o'tkazish maqsadida tashkil etilgan. “Kitobxon talaba” tanlovi (keyingi o'rinlarda – “Tanlov”, deb yuritiladi) o'tkazish tartibini belgilaydi.
2. Mazkur tanlov O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 5-apreldagi “Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan Kitobxon talaba tanlovini tashkil etish to'g'risida”gi 81-son buyrug'i hamda 2023-yil 9-avgustdagi "Talaba yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi 351-son buyrug'ida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan.
3. O'zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi va tilidan qat'iy nazar 20 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan barcha talabalar tanlovda ishtirok etish huquqiga ega.
4. Tanlovni yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish Jizzax davlat pedagogika universiteti va Jizzax viloyat axborot-kutubxona markazi tomonidan amalga oshiriladi.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

1. Tanlovning asosiy maqsadi va vazifalari – Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri-inson qadrini ulug'lash, Vatanga bo'lgan sadoqat tuyg'ulari va yetuk mutaxassis bo'lib yetishish kabi tushunchalarni talabalar ongiga singdirish.
2. Shuningdek, talaba-yoshlar o'rtasida badiiy asarlarning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini targ'ib qilish orqali yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ularning kitobdan foydalanishlari uchun shart-sharoit yaratish, mustaqil va erkin fikrga ega iste'dodli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iborat.

III. Tanlovni tashkil etish, o'tkazish va tanlov shartlari

1. “Kitobxon talaba” tanlovda barcha bakalavr va magistr talabalar ishtirok etishi mumkin.
2. Tanlovda ishtirok etishni hoxlovchilar <https://t.me/targ'ibotchikitobxontalabajdpu> telegram manzili orqali ro'yxatdan o'tishlari lozim.

3. Tanlov shartlari quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- 3.1. “Eng bilimdon kitobxon” sharti (test shaklida) bunda tanlov nizomi 2-ilovasida keltirilgan kitoblar ro'yhati, shuningdek, shu asarlar muallifi, ijodkorlarning hayoti va ijodi, faoliyati yuzasidan tanlov ishtirokchilari o'rtasida test sinovi (15 ta savoldan iborat) (arizalar qabul qilish va saralash bosqichi bo'lib, bunda tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan talabalardan arizalar qabul qilinadi va ishtirokchilar test sinovi asosida saralanadi. Tanlovga arizalar saralash bosqichi (Test sinovi) boshlangan vaqtga qadar qabul qilinadi) o'tkaziladi. Test sinovi joriy 2024-yilning 20-25-fevral kunlarida o'tkaziladi.

3.2. **“Annotatsiya mahorati”** - bunda, ishtirokchilar tomonidan “Men yoqtirgan asar” nomi ostida o‘zi sevib o‘qigan asar bo‘yicha qisqacha annotatsiya beriladi.

Annotatsiyalar quyidagi tartibda rasmiylashtirilishi lozim:

-annotatsiyalar Word dasturida Times New Roman shriftida 14 o‘lchamda, 1 interval oralig‘ida, yuqori, o‘ng, chap va pastdan 2 sm hoshiya bo‘lishi kerak.

- annotatsiya mavzusi qat’iy ro‘yxatda ko‘rsatilgan asarlar mavzusida bo‘lishi va mavzudan keyin talabning fakulteti, ta‘lim yo‘nalishi, ta‘lim bosqichi, to‘liq ism, familiya, sharifi va telefon raqami keltirilgan bo‘lishi shart.

- Texnik shartlarga javob bermaydigan annotatsiyalar qabul qilinmaydi.

3.3. **“Kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ‘ib etish”** sharti. Bunda ishtirokchi tomonidan kitobxonlik va mutolaa madaniyatini targ‘ib etish jarayoni ya‘ni kitobxonning og‘zaki nutqi asosida amalga oshiriladi.

4. Mazkur **“Annotatsiya mahorati”** va **“Kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ‘ib etish”** nomli 2 shart bo‘yicha yakuniy bosqich joriy 2024-yil aprel oyining birinchi o‘n kunligida o‘tkaziladi.

5. Ko‘rik-tanlovni adolatli o‘tishini ta‘minlash maqsadida manbashunos, tarixchi va adabiyotshunos olimlardan iborat tarkibda Hay‘at tarkibi tashkil etiladi.

6. Tanlovning har bir bosqichida barcha shartlar bo‘yicha umumiy ballar qo‘shib hisoblanganda eng yuqori ko‘rsatkichga erishgan ishtirokchi tanlovning g‘olibi deb topiladi. Agar ishtirokchilar o‘rtasida umumiy to‘plangan ballar teng kelib qolgan taqdirda, I, II va III o‘rinlarni taqsimlash Hakamlar hay‘ati a‘zolari tomonidan hal etiladi. Bunda ballari teng kelib qolgan ishtirokchilarga qo‘shimcha savollar beriladi. Shundan so‘ng ham ularning javoblari bir xil chiqsa, bu jarayon g‘olib aniqlangunga qadar davom etadi.

7. Tanlov g‘oliblari hakamlar tomonidan aniqlanadi va 25-fevralga qadar jdpu.uz rasmiy sayti va rasmiy kanalda e‘lon qilinadi.

8. Ko‘rik-tanlovning yakuniy natijalari Hakamlar hay‘atining qarori bilan rasmiylashtiriladi.

IV.Tanlov shartlari va baholash mezonlari

1. Tanlovga natijalari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

2. Tanlovning o‘tkazilish tartibiga muvofiq **“Eng bilimdon kitobxon” sharti** (test) natijasi bo‘yicha tanlov ishtirokchilarining to‘plagan bali(to‘g‘ri javoblar soniga qarab 1ta savolga 2 ball – jami 30 ball)inobatga olinadi. Testlar tanlov nizomining 2-ilovasida keltirilgan kitoblar ro‘yhati, shuningdek, shu asarlar muallifi, ijodkorlarning hayoti va ijodi, faoliyatidan tuziladi hamda barcha ishtirokchilar bir xil test varaqning o‘zida taqdim etiladi (kompyuterda ham o‘tkazilishi mumkin). Ushbu shart uchun 15 daqiqa vaqt ajratiladi.

2.1. Test natijalariga ko‘ra, tanlov hay‘atining tavsiyasi asosida 25 va undan yuqori ball to‘plagan ishtirokchilar saralanadi.

3. **“Annotatsiya mahorati” shartida** Hakamlar hay‘ati ishtirokchilarning “Asarga tayyorlagan annotatsiya”sini baholashda ularning belgilagan asarni o‘qiganligini tekshiradi hamda mohiyatni to‘g‘ri tushungani va ifoda etib bera olish qobiliyatiga qarab 20 ballik tizimda quyidagi tartibda baholaydi.

3.1. Annotatsiya yozishdagi savodxonligi-5 ball;

3.2. Tavsiya etilgan adabiyotning annotatsiyasini yozishda asarning yetakchi g‘oyasi va mazmunining to‘liq qamrab olganligi- 5 ball;

3.3. Kitobxon tomonidan asarga munosabatning (tanqidiy yoki ijobiy) qiziqarli va jozibador tarzda bildirilganligi – 5 ball;

3.4. Annotatsiya matnida fikrni ifodalash uslubi, badiiy obrazlarning real hayot bilan bog‘liq ibratli tomonlari ochib berilganligi- 5 ball. Ushbu shart (annotatsiya yozish) uchun 25 daqiqa vaqt ajratiladi. Bunda ishtirokchi tomonidan yozilgan annotatsiya matni

Hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan jamoaviy tarzda ko'rib chiqilib, birgalikda xulosa qilgan holda yagona ball (baho) qo'yiladi.

4. **“Kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ'ib etish” shartida** ishtirokchi tomonidan kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ'ib etish jarayoni Hakamlar hay'ati oldida amalga oshirildi.

Hakamlar hay'ati tomonidan ishtirokchining kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ'ib etish usuli hamda ushbu jarayonda tinglovchini ishontira olish qobiliyati 50 ballik tizimda quyidagi tartibda baholanadi:

4.1. Kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ'ib etish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ibratli ishlar va bu borada aholi, xususan yoshlar o'rtasida erishilayotgan ijobiy natijalar yuzasidan fikr-mulohazalar mavjudligi – 10 ball;

4.2. Targ'ibot jarayonida ishtirokchi tomonidan o'zi o'qigan asarlarning kuchli va ta'sirchan tomonlarini ochib bera olishi hamda ushbu asarlardan olgan taassurotlarning o'z hayot yo'lidagi tutgan o'rniga ahamiyat qaratishi – 10 ball;

4.3. Kitob o'qishning ijobiy natijalari yuzasidan o'zi tomonidan bildirilayotgan fikrlarni aniq ma'lumotlar va ishonchli asoslar bilan yetazish orqali tinglovchini ishontira olish qobiliyati – 10 ball;

4.4. Adabiyotda berilgan umuminsoniy g'oyalar va milliy koloritga munosabat bildirib o'ta olishi -- 10 ball;

4.5. Kitobni o'qish davomida o'quvchi tomonidan kitobga nisbatan ehtiyotlik bilan munosabatda bo'lib, mutolaa madaniyatiga amal qilinishi masalalariga e'tibor qaratishi – 10 ball. Ushbu shartda har bir ishtirokchi uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi. Bunda Hakamlar hay'atining har bir a'zosi o'zining bahosini namoyishkorona e'lon qiladi va asoslab beradi. Barcha a'zolarining qo'ygan ballari umumlashtirilib, ularning umumiy soniga bo'lingan holda o'rtacha ball (baho) chiqariladi.

4. Yakuniy baho – talovning uchta sharti natijalari bo'yicha ishtirokchilarning to'plagan ballarini qo'shish (30+20+50=100 ball) natijasi asosida aniqlanadi.

V.Tanlov g'oliblarini taqdirlash

1.Tanlovda yuqori (1,2,3) o'rinlarni egallagan talabalar universitet rahbariyati tomonidan Diplom va quyidagi tartibda moddiy-ma'naviy rag'batlantiriladi:

1-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri o'zbek va jahon adabiyotining durdona asarlaridan iborat (5 ta) kitoblar jamlanmasi;

2-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri o'zbek va jahon adabiyotining durdona asarlaridan iborat (3 ta) kitoblar jamlanmasi;

3-o'rinni egallagan ishtirokchilarning har biri o'zbek va jahon adabiyotining durdona asarlaridan iborat (2 ta) kitoblar jamlanmasi bilan taqdirlanadi.

2. Rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar universitetning byudjetdan tashqari mablag'ri hisobidan yoki boshqa homiy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

3. Tanlovda faol ishtirok etgan talabalar faxriy yorliqlar bilan taqdirlanadi. Yuqori (1,2,3) o'rinlarni egallagan talabalar universitet rasmiy sayti va rasmiy telegram kanalida yoritiladi.

V. Yakuniy qoidalar

1. Tanlovni o'tkazish jarayonlari bo'yicha kelib chiqadigan nizolar nizomda belgilangan tartibda hal etiladi.

2. Tanlov natijalari JDPU sayti va telegram kanalida e'lon qilinadi.

TAVSIYA ETILADIGAN KITOBLAR RO'YXATI

1. Amir Temur. Temur tuzuklari.
2. Odil Yoqubov. "Ulug`bek xazinasasi"
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma"
4. Shukurullo. "Kakansiz ko`milganlar"
5. Jorj Oruell. "Molxona"
6. G`afur G`ulom. "Shum bola"
7. Mirkarim Osim. "Ajdodlarimiz fojiasi"
8. Gabriel Markes. "Yolg`izlikning yuz yili"
9. Oybek. "Qutlug`qon"
10. Sa`dulla Siyoev. "Xorazmning sunggi malikasi"

**“Kitobxon talaba” tanlovi
Tashkiliy guruh tarkibi**

№	F.I.SH. va lavozimi	A`zoli
1.	S.Nazarqosimov, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor	Tashkiliy guruh raisi
2.	G'.Qodirov, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor	A`zo
3.	Fakultet dekanlari, lavozim bo'yicha	A`zo
4.	B.Qo`shmurodov, yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig`i	A`zo
5.	R.Ishnazarova, Universitet ARM direktori	A`zo
6.	S.Yerbo`tayeva, Jizzax viloyat axborot-kutubxona markazi bo`lim mudiri	A`zo
7.	Sh.Siddiqova, Boshlang`ich ta`lim nazariyasi va amaliyoti kafedrasida dotsenti	A`zo
8.	D.Salimova, O`zbek tili va uni o`qitish metodikasi kafedrasida dotsenti	A`zo
9.	B.Mirzayev, O`zbekiston tarixi kafedrasida o`qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori	Tashkiliy guruh kotibi